

TOSHKENT VILOYATI AHOLISI OILAVIY TARKIBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

PhD **Sabirova Muazzam Shuxratbek qizi**
Alfraganus University nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
ORCID: 0000-0003-2250-3824
mua1993.10@mail.ru

Annotatsiya. Aholining ko'payib borishi o'z-o'zidan demografik jarayonlarni tadqiq etishga qaratilgan ishlar ko'lamenti yanada kengaytirish kerak ekanligini bildiradi. Aholi tarkiblari, xususan, yosh, jins, milliy-etnik tarkiblar bilan birgalikda oilaviy, ijtimoiy tarkiblar ham borki, ularni tadqiq va tashxis etish hozirgi kunga kelib dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini oilaviy tadqiq etishning geografik jihatlaridan biri ham, aholining balandlik joylashuvi bo'yicha oilalar soni, turi, shakli va o'lchami bo'yicha o'ziga xos jihatlarini ochib berishni taqozo etadi. Geografik tadqiq etishda aynan hududdan kelib chiqib, aholi oilaviy tarkibiga geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ta'sirini o'rganish zarurdir.

Kalit so'zlar: oilaviy tarkib, oilalar soni, oilalar turi, oilalar shakli, oilalar o'lchami.

ХАРАКТЕРНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СОСТАВА СЕМЬИ ЖИТЕЛЕЙ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

PhD **Сабирова Муаззам Шухратбек кизи**
Университет Альфраганус неправительственная
организация высшего образования

Аннотация. По мере роста населения необходимо будет и дальше расширять масштабы исследований графических процессов. Наряду с составом населения, в частности возрастным, половым, национально-этническим составом, существуют также семейный и социальный составы, исследование и диагностика которых считаются в настоящее время одной из актуальных задач. Одна из географических особенностей личного исследования населения требует раскрытия специфических особенностей населения по численности, типу, типу и размеру семей в зависимости от расположения высоты. Необходимо изучать географическое и социально-экономическое развитие населения в условиях географического влияния.

Ключевые слова: состав семьи, количество семей, тип семьи, форма семьи, размер семьи.

CHARACTERISTIC FEATURES OF THE FAMILY COMPOSITION OF RESIDENTS OF THE TASHKENT REGION

PhD Sabirova Muazzam Shuxratbek kizi

*Alfraganus University non-governmental higher
education organization*

Abstract. As the population grows, it will be necessary further to expand the scope of research on graphic processes. Along with population structures, in particular, age, gender, and national-ethnic structures, there are also family and social structures, the study and diagnosis of which is currently one of the most urgent tasks. One of the geographical features of personal research of the population requires the disclosure of specific features of the population by number, type, type, and size of families depending on the location of the height. It is necessary to study the geographical and socio-economic development of the population in terms of geographical influence.

Keywords: family composition, number of families, family type, family form, family size.

Kirish.

Jahonda aholining tez sur'atlar bilan o'sishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tezlashuvi hamda globallashuvi demografik jarayonlarda sezilarli darajadagi o'zgarishlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammolarning oldini olishga bir qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida "2030-yilga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy rejalarни ishlab chiqishda aholining oilaviy tarkibi va ayollar, qizlarning kelajagiga e'tibor qaratilishi"²⁸ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, turli geografik mintaqalar aholisi ko'payishi bevosita oilaviy tarkib bilan bog'liqligini inobatga olgan holda, oilaviy tarkib shakllanishidagi geodemografik muammolarini o'rganish va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, aholining oilaviy tarkibidagi o'zgarishlarni baholash, noto'liq oilalar miqdorini aniqlash va nikoh, ajralish jarayonlari tendensiyalashuvining oilalarga salbiy ta'sirini kamaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada aholi milliy-etnik tarkibining oilaviy tarkibga ta'sirini baholash, shahar va qishloq aholisining geodemografik muammolarini aniqlash, nikoh va ajralish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini hamda salbiy oqibatlarini kamaytirish, aholi oilaviy tarkibining ijtimoiy-iqtisodiy va geodemografik muammolarining yechimiga qaratilgan tadqiqotlar ahamiyatlari hisoblanadi.

Respublikamizda aholi oilaviy tarkibidagi noto'liq oilalar sonini kamaytirish va ajralish jarayonining oldini olishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida "oilaviy ajralishlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini hududiy tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash"(Senat qarori, 2021) yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada hududlar kesimida aholi oilaviy tarkibining nikoh va ajralish jarayonlarining geodemografik muammolari yechimiga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahonning qaysi burchagiga bormaylik, aholining oilaviy tarkibi jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Oila muhim komponent bo'lib, u inson va jamiyat ijtimoiy kapitalining rivojlanishini o'z - o'zidan belgilab beradi. Bularning isboti sifatida Oilalarning Yettinchi Butunjahon kongressida (Sidney, 2013-yil, may) "oila sog'lom iqtisodiyotning shakllanishi mamlakatni ravnaq topishi"²⁹ sifatida ko'rib chiqilgan.

²⁸ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/>

²⁹ <https://www.deutschland.de/ru>

Aholining oilaviy tarkibida nikoh va oilaviy munosabatlar o'z rivojlanish tarixi va taraqqiyoti bo'yicha dastlabki qadamlaridanoq nikohning sof samimiy hamda poklik ramzi asosida oilalarning vujudga kelishi, tarkib topishi uchun xizmat qilgan. Insonlar paydo bo'libdiki, ularning to'da-to'da bo'lib yashashlari natijasida oila sekin - astalik bilan yuzaga kela boshlagan. Umum qabul qilingan ta'rifga ko'ra, "nikoh erkak va ayolning tarixan o'zgarib boradigan ijtimoiy munosabatlari shaklidir (Харчев, 1979). Oila nikohga, aniqrog'i, erkak va ayolning nikoh borasidagi ittifoqiga asoslanadi.

Aholining oilaviy tarkibida oilalar o'lchami, demografik rivojlanishida nikoh jarayoni insoniyat tarixi davomida kishilarning ko'payish jarayonining ajralmas xususiyati bo'lib kelgan. Demografik jarayonlarni o'rganishda nikoh jarayoni o'ziga xos alohida yo'naliшhga ega bo'lgan.

Aholi ko'payishi va joylanishida oilaviy tarkib jamiyatning farovonligini ta'minlashda poydevor vazifasini bajaradi. Aholining oilaviy tarkibida nikoh jarayoni tadqiq etilganda, avvalambor, aholining takror barpo bo'lishi, yosh-jinsiy tarkibi va aholi soniga ta'siri doirasida o'rganiladi. Geograf olimlardan biri Kopilov (1999): "yosh-jins, nikoh va oilaviy tarkib aholining ko'payishi bilan bog'liq va bu demografiyaning predmeti hisoblanadi. Qolganlari ekzogen ya'ni o'zgaruvchilar bo'lib demografik jarayonlarga bilvosita ta'sir qiladi". Bundan tashqari, Anoxin, Jitin (2017) kabi geograf olimlari ham "nikoh va ajralishlar odatda aholining tabiiy harakatiga kirishini, garchi ular aholi sonini bevosita o'zgartirmasligi" to'g'risidagi fikrlarni bildirishgan. Darhaqiqat, aholining tabiiy harakati bevosita aholi takror barpo bo'lishi bilan bog'liqdir. Aholining takror barpo bo'lishi esa o'z navbatida aholining oilaviy tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada Toshkent viloyati aholisi oilaviy tarkibining tarixiy, statistik, qiyosiy taqqoslash metodlaridan foydalilanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Oilani tadqiq etishda va o'rganishda avvalambor oilaning turi, o'lchami, shakli va tuzilishini tahlil qilish maqsadga muvofiqidir. Oilaning tarkibi – oiladagi kishilar soniga ko'ra taqsimlanishi, uning shakli, tuzilishi va turlariga ko'ra bo'linishidir (Глушково, Симагина, 2012). Oilani o'rganishda uning vazifalaridan eng muhimmi bu aholining takror barpo bo'lishi ya'ni tug'ilish jarayonlarining rivojlanishidir.

Oila o'lchami, asosan oilada istiqomat qiluvchi kishilar soniga ko'ra tahlil qilinadi. Osiyo va Yevropa davlatlarida oilaning turlari va shakllanishi ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, hozirgi vaqtida demografik o'tish bosqichining to'rtinchı davriga kiruvchi davlatlardan biri Germaniyada asosan 1 va 2 nafar farzandli oilalar ko'p. 2015-yil ma'lumotlariga ko'ra, bu davlatda 5,5 million oilalardagi ota-onalar nikohdan o'tishgan, 843 ming nafari esa nikohlanmagan. Aksariyat oilalar noto'liq oilalar bo'lib, asosan onasi yoki otasi bilan yashashgan. Noto'liq oilalarda 11% bolalar faqatgina otasi bilan istiqomat qiladi.³⁰

O'zbekistonda esa 2015-yildan umumiy oilalar soni 7 646 355 tani tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 9 729 961 taga ko'paygan. O'rganilyotgan Toshkent viloyatida respublikadagi oilalarning 10 foizini tashkil etadi.

Aholining oilaviy tarkibi uning o'lchamlari, turi, shakli va tuzilishi bo'yicha shahar va qishloq aholisi va aholining balandlik mintaqalari bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. Toshkent viloyati aholisi oilalari respublikaning 10 foizini tashkil etadi. Oilalar sonida eng yuqori ko'rsatkich 2015–2020-yillarda Angren shahrining ko'rsatkichi yuqori bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda esa Chirchiq shahri oilalari 10 foizni tashkil etgan. 18 yoshdan kichik bolali oilalar soni bo'yicha ham Chirchiq shahri yuqori ko'rsatkichga ega.

³⁰ <https://www.deutschland.de/ru>

1-jadval


Toshkent viloyati tumanlari aholisi oilalar soni, (2015–2023-yy, foizda)

Tumanlar	Jami oilalar soni (foizda)				
	2015-yil		2020-yil		2023-yil
	shahar	qishloq	shahar	qishloq	Jami
Oqqo'rg'on	3	4	3	4	3
Ohangaron	3	4	3	5	3
Bekobod	5	7	5	8	5
Bo'stonliq	7	8	6	8	6
Bo'ka	4	4	4	5	4
Quyichirchiq	4	4	3	5	8
Zangiota	16	23	8	13	6
Yuqorichirchiq	4	5	4	5	4
Qibray	7	11	8	13	6
Parkent	5	5	5	5	5
Piskent	3	2	3	3	3
O'rtachirchiq	7	10	5	8	4
Chinoz	3	4	4	5	4
Yangiyo'l	7	10	7	1	7
Toshkent	0	0	7	11	7

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

To'liq bo'limgan oilalalar sonida Angren shahri yuqori bo'lgan bo'lsa, Ohangaron va Yangiyo'l shaharlarida to'liq bo'limgan oilalar miqdori biroz pastligini ko'rish mumkin.

Viloyat tumanlarida esa umumiy oilalar sonida 2015-yilda oilalar soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlar 2023-yilga kelib biroz pasaygan. Oilalarning ko'p bo'lishi aholi tabiiy o'sishini, inson kapitalini ta'minlashi bizga ma'lum. Ammo viloyat tuman va qishloqlarida bu jarayon nisbatan sust.




1-rasm. Toshkent viloyati tumanlari aholisining oilaviy tarkibi (2015–2023-y.y. foizda)

Viloyat oilalarida nikoh yoshining ko'tarilishi, oilalar sonining kamayishi va ajrimlar sonining oshib borishi o'z navbatida bu hududdagi geodemografik muammolarni keltirib chiqaradi. Aynan oilalar sonida noto'liq oilalar sonining kamayib borishi ham viloyat

tumanlarida kuzatilmogda. Hududning poytaxt shaharga yaqin ekanligi, tobora shahar aholisidagi qarashlar qishloq aholisi oilalarida kuzatilmogda.

Viloyat aholisi oilalarining har bir shahar va qishloq aholisi oilalari bir-biridan tubdan farq qiladi. Toshkent viloyati tumanlaridan Bo'stonliq, O'rtachirchiq va Zangiota tumanlari shaharlarida 18 yoshtan kichik bolali oilalar soni bo'yicha 2015-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2023-yilga kelib 50 % ga kamayganligini ko'rish mumkin. Aynan tog'li hududga kiruvchi Bo'stonliq tumanida ajralish jarayoni ham faoldir.

Bizga ma'lumki, respublikani mehnat resurslari bilan ta'minlovchi hududlar bu qishloq joylari aholisidagi oilalar hisoblanadi. Viloyatda ko'p bolali oilalar soniga ko'ra, Parkent, Bo'stonliq, Chinoz tumanlari qishloqlari 2020-yilga qadar yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib aynan mana shu hududlardagi ko'p bolali oilalar soni teng yarmiga kamaygan. Umuman olganda, tog'li hududga kiruvchi Parkent va Bo'stonliq tumani oilalarida tobora nikoh-oila munosabatlariiga bo'lgan qarashlar o'zgarib bormoqda.



2-rasm. Toshkent viloyati oilalar kartasi

(karta mualliflik nusxasi 1:400 000 masshtabda tuzilgan)

Aholi sonining ko'p bo'lishi, oilalar shaklining o'zgarishi pirovard natijada tug'ilish jarayonlari bilan bog'liq ekanligi bizga ma'lum. Tug'ilish jarayoni aholi soni, aholi yosh tarkibi va ishchi kuchini ta'minlashda eng asosiy omil vazifasini bajaradi. Toshkent viloyati tadqiq

etilganda, tekislik hududiga kiruvchi shahar va tumanlarda tug'ilish umumiy koeffitsiyenti o'rtacha ko'rsatkichga tengligi aniqlandi.

Toshkent viloyatining Chirchiq shahri tug'ilish umumiy koeffitsiyentining pastligi bilan qolaversa, tabiiy o'sish darajasining kichikligi bilan ajralib turadi. Bu shaharning sanoat shahri ekanligi va milliy tarkibidagi xilma-xillik bilan aloqador ekanligi bilan bog'liqdir. Tug'ilish umumiy koeffitsiyenti o'rtacha bo'lgan hududlarga esa, Nurafshon, Angren, Bekobod, Ohangaron va Yangiyo'l shaharlari, viloyat tumanlaridan Bo'stonliq va Toshkent tumanlari kirgan. Qolaversa, bu ikki tumanda tabiiy o'sish ko'rsatkichi pastligi, mos ravishda: 20,2 % va 19,4 % teng. Tadqiqotlar Toshkent tumanida ichki migratsiya hisobiga tug'ilish darajasi ko'tarilishi mumkinligi, ammo Bo'stonliq tumanida tobora pasayib borishini ko'rsatmoqda. Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti yuqoriligi saqlanib qolayotgan Olmaliq shahri, Oqqa'rg'on, Ohangaron, Bekobod, Bo'ka, Quyi Chirchiq, Zangiota, Yangiyo'l, Yuqori Chirchiq, Qibray, Parkent, Pskent va Chinoz tumanlarida tug'ilish umumiy koeffitsiyenti yuqoridir. Ammo, bu tumanlarning Bekobod va Parkent tumanlarida ajralish umumiy koeffitsiyenti nisbatan yuqoriligi, bu holat istiqbolda bevosita tug'ilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

Xulosa va takliflar.

Toshkent viloyati nafaqat o'zining ixtisoslashuvi va geografik o'rni bilan balki aholisining demografik jarayonlardagi o'ziga xos o'zgaruvchanligi bilan ham ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, viloyat aholisining oilaviy tarkibining xilma-xil bo'lishi bevosita aholining joylashgan o'rni va yashash turmush tarzi bilan bog'liq ekanligi o'rganildi. Aholining balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvi, oilalar soniga, nikoh va ajralish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi ko'rib chiqildi va asoslandi. Shahar aholisining ta'sirini, ya'ni yondosh shahar hisoblanmish Chirchiq shahriga Toshkent shahrining ta'siri o'rganildi va oilaviy tarkibi tadqiq etildi. Aholisi milliy- etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan hududlardagi oilalarda nikoh jarayonlari ham o'ziga xos ekanligi va bu bevosita oilalarning demografik rivojlanishiga ta'sir etishi aniqlandi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Senat qarori, (2021) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021-yildagi SQ-297-IV son.

Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии. Учебник для академического бакалавриата.- М.: Юрайт, 2017 стр 86

Глушково В.Г., Симагина Ю.А. (2012) Демография учебное пособие.

Копылов В. Я. География населения.Москва: «ВИНИТИ», 1999.-124 с.

Харчев А.Г. (1979) Брак и семья в СССР.-М.: -66 с.

<https://www.deutschland.de/ru>

<https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/>